# MASOFAVIY TA'LIM

**Isoqova Muxlisa Faxriddin qizi**
*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi*
isoqovamuhlisa8@gmail.com
**Fayzullayev Sayfiddin Baxodir o'g'li**
*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari talabasi*
sayfiddinfayzullayev01@gmail.com

**Annotatsiya:** *Masofaviy ta'lim haqida qabul qilingan qaror va qonunlar haqida va ularning nazariy ma'nosi,masofaviy ta'limning tashkil etilish etapi,masofaviy ta'limning afzal tarafi,kamchilik va muammolari haqida.Masofaviy ta'limda faoliyat yuritayotgan saytlarni yorib berganmiz.*

**Kalit so'zlar:** *online ta'lim,onlineEdu,uslubiy qo'llanmalar,yangi texnologiyalar, imkoniyatlari, an'anaviy ta'lim, lms.tuit.uz, motivatsiya, mustaqil o'qish, irodali bo'lish, amali mashg'ulotlar.*

Davlatimiz mustaqillikka urishgandan so'ng hamma sohalar rivojlanganini kabi ta'lim to'g'ridagi qonunlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilib,yanada rivojlantirish,har bir insonni barkamol shaxs bo'lib tarbiya topishiga o'z hissasini qo'shdi.Bu esa davlatimizda oliy ma'lumotli kadrlarni ko'payishi,o'qishga,bilim olishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'lmoqda.Ta'lim tizimimiz qanchalik rivojlanib,yuqori darajalarga ko'tarilsa bu mamlakatimizni boshqa davlatlar bilan raqobatdoshligini,O'zbekistondagi har bir shaxsni ma'naviyatli,bilimli bo'lish bilan birga chet davlatlarda bo'ladigan musobaqalarda yutib yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga turtki bo'ladi. O'zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 03.10.2022-yildagi 559-son "Oliy ta'lim tashkilotlarda masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini misol qilamiz va uning ma'no mohiyati haqida gapiramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga doir davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan sohada samarali foydalanish maqsadida qaror qabul qiladi: Talabalarning turar joylaridan qat'i nazar unga axborot texnologiyalarini o'rganish uchun imkoniyatlar yaratishi, masofaviy ta'limni yaratish platformalarida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish, bu jarayonning natijalarini monitoring qilish, masofaviy ta'lim o'quv yurtlariga joriy qilish, masofadan turib o'zlashtirishga yo'naltirilgan bu tizimni har xil tashkilotlarga ham joriy qilish masalalari o'rin olgan. Bundan ko'rinib turibdiki masofaviy ta'limning imkoniyat darajalari keng. Bunga davlatimiz ham befarq bo'lmayapti.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ham kitoblarida malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash haqida ko'p takidlaganlar. Ta'limning eski usullaridan foydalanish shu asosida ta'lim muhitini yaratmasdan, kreativ yondashuvlar

ham kerak bo‘ladi. Shunday ekan zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini tashkillashtirish, yangi o‘quv uslubiy qo‘llanmalardan, yangi metod, texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi deb ta’kidlab kelmoqdamiz. Bu faqat gap bo‘lib qolmasdan amaliy natijalarda qo‘llashimiz zarur. O‘quv muhitining yangi texnologiyalariga misol qilib masofaviy ta’lim tizimini olsak bo‘ladi. Masofaviy ta’lim deganda yangicha o‘quv muhiti tushuniladi. Turli xil sohalarda (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy) masofadan turib pedagoglar, talabalar, pedagog-talabalar o‘z faoliyatini, ta’lim jarayonini olib borishadi. Masofaviy ta’limda masofadan turib bilim olish, o‘rganish mumkin eng qiziqarlisi xohlagan joyingizda turib (ko‘cha, uy, sayilgoh, kafe va hokozo). Masofaviy ta’limning imkoniyatlari keng, darsda ma’lum bir darsliklar bilan cheklanib qolasiz. Masofaviy ta’limda har qanday, hohlagan sohangizga oid kitoblarni elektron ravishda yuklab olib o‘rganishlari mumkin. Masofaviy ta’limni qo‘llashdan oldin masofaviy o‘qitish tarmoqli, masofaviy o‘qitish tizimlarini va usullarini rivojlantirib tadbiq qilib ko‘rishdi. Hozirda bu platforma va shunga o‘xshash online edu ko‘paymoqda. Bu albatta quvonarli. Masofaviy ta’limning afzalliklari: o‘quvchi, o‘qituvchi (o‘rganayotgan shaxs) o‘ziga hohlagan vaqtda o‘rganishi mumkin;

- ❖ Qayerda o‘rganishingizni ahamiyati yo‘q, joyning ahamiyati yo‘q;
- ❖ Masofaviy o‘qitishda an’anaviy ta’limdagi jarayon kabi zo‘ravonlik, qo‘pol harakatlar bo‘lmaydi;
- ❖ Ma’lum rejalashtirilgan o‘quv reja asosida dars jarayoni (ya’ni nizom asosida) olib borilmaydi;
- ❖ Bir vaqtni o‘zida o‘zaro axborot almashish mumkin;
- ❖ Keraksiz vaqt sarflamaysiz, vaqtingizni tejaysiz;
- ❖ Mablag‘ tomondan foydali (yo‘lga va hokozo joylarga) pul sarflamaysiz;
- ❖ Yangi axborot kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud;
- ❖ Hamma inson teng huquqliligi;
- ❖ Pedagogik vazifalarni yangilaydi;
- ❖ Ijodiy faollikni oshiradi;
- ❖ Bilim, ko‘nikma, malakani rivojlantiradi;
- ❖ Innavatsion muhitni yaratadi;
- ❖ Yangi axborot almashinishning tezligini taminlaydi;
- ❖ Indivudual yondashish;

Masofaviy ta’lim tizimida o‘quvchi mustaqil izlanish, mustaqil bilim olish, ko‘proq harakat qilish, axborot texnologiyalari bilan ishlash va uni tushunish, erkin fikrlash, ma’suliyatli bo‘lish kabi qobilyatlarini o‘zida shakllantiradi. Shu bilan birga Rossiya, MDH, Butunjahon Hamjamiyati chegarasidagi ta’lim fazasining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashni o‘z ichiga olgani yaxlit ta’lim fazosini rivojlantirdi. Masofaviy ta’lim ko‘plab davlatlarda takomillashgan. Buning samarasini ularning ta’lim tizimidan bilib olsangiz bo‘ladi. Oliy ta’lim sohasidagi o‘qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijsida ta’lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o‘qitish usuli pedagog va talabalar uchun qator qulayliklarga egaligini ta’kidlash joiz. Internetdan foydalanib kerakli ma’lumotlarni qiyinchiliklarsiz topasiz. Turli slayd, ppt, multimedia vositalari yordamida o‘rganayotgan narsangizni mustahkam

tushunib olasiz. Jahon adabiyotlaridan, zamonaviy axborotlariga ega bo‘lasiz. An’anaviy ta’limdan qay jihatlari bo‘yicha ajratib turishini yuqorida sanab o‘ttik va ko‘p jihatlardan farq qiladi. Shu bilan birga masofaviy o‘qitish tizimi bizga ko‘plab vazifalarni oldimizga qo‘yadi. Pedagoglar yangi zamonaviy usullarni o‘ylab topishi kerak;

- Internetdagi o‘quv materiallarini to‘ldirib borish kerak tez-tez;
- Ijodiy yondashuvni talab qiladi;
- Pedagog va talabalarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi kerakligi;
- Mustaqil olgan bilimlarini qo‘llay bilishi kerak;

Aslini olganda masofaviy ta’lim jarayoni uzoq bo‘lgan o‘quv maskanlari uchun mo‘ljallangan edi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonini online tarzda olib borishi mumkinligini isbotladi. Natijada tez fursatda bu ta’lim turi tarqalib ketdi. Va shu bilan bu oliy o‘quv yurtlari, o‘quv muasassalariga kirib bordi. Masofaviy o‘qitishning ijobiyligi isbotlangan. Bu borada AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va Buyuk Britaniyaning ochiq universitetlari kurashmoqda. Masofaviy o‘qitish texnologiyasi yuz yillar oldin ko‘rib kelingan.Rossiya tajribasidan misol A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva xalq universiteti Noxotka shaxridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. V.P.Ekernov 1987-yili masofaviy o‘qitishni joriy etgan.Masofaviy o‘qitish tizimini,texnologiyasini joriy qilishdan avval o‘sha o‘quv yurtida masalan oliy ta’limni oladigan bo‘lsak o‘sha oliy ta’limda kerakli elektron kutibxonalar,zamonaviy axborot vositalari yetarli bo‘lishi yoki,pedagog kadrlarni zamonaviy axborot kommunikatsiya sohasida tajribaga ega bo‘lishi va bilim salohiyati yetarli bo‘lishi kerak. Bu bilan birga masofaviy ta’limning an’anaviy ta’lim bilan uzviy olib bog‘lab dars o‘tishi kerak bunda pedagoglarning dars jarayonini qo‘llaniladigan materialini tizimga joylash kerak va saytdagi mavzu,ma’lumotlarni an’anaviy dars jarayonida talabalarga yetqizib turish kerak. Misol uchun hozirda Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent xborot texnologiyalari universitetida joriy qilingan lms.tuit.uz tizimini olaylik. Bu sistemada talaba darsdan tashqari mavzularni mustaqil o‘rganishi,topshiriqlarni sifatli bajarib joylashi,mas’uliyatli bo‘lish,erkin fikrlash kabi hislatlarni o‘zida jam etadi. Lms sayti bu tanishtiradigan bo‘lsam saytni havolasi orqali yoki “google” ga lms.tuit.uz deb yozib kirish mumkin. Va universitet tomonidan har bir talabaga shaxsiy login




va parol beriladi.

Login va parolingizni terib kirasiz  Saytga kirganingizdan so‘ng siz shaxsiy kabinentingiz

shakllangan bo‘ladi.Siz bu joydan o‘zingizga kerakli katagoriyani tanlaysiz  qanaqadir tezkor xabarlar,e’lonlar bo‘ladigan bo‘lsa kirish qismidagi interfeysda namoyon bo‘ladi.




O‘qituvchilaringiz tomonidan yuklangan vazifalarga mas’uliyatli bo‘lib bajarishingiz talab qilinadi.Topshiriqlar yuzasidan dedlayn bo‘ladigan bo‘lsa sayt sizga ogohlantirib turadi.Dars jarayoniga e’tiborli bo‘lishingiz talab qilinadi.Xullas bu saytning imkoniyatlari keng sizning o‘qib kelayotgan yilingizdan boshlab to‘plagan ballaringiz,o‘zlashtirish natijalaringiz ham turadi.Yana online olimpiadalar bo‘ladi unda qatnashib o‘z bilimingizni sinashingiz mumkin.

Masofaviy ta’lim haqida gap borarkan shu o‘rinda o‘zim yaratgan saytni aytib o‘tmoqchiman.Bu sayt “onlineEdu” deb nomlanadi.Ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan saytdir.Bunda  xohlagan shaxs masofadan turib ingliz tilini o‘rganish imkoniyatiga ega xoh pedagog bo‘lsin xoh talaba istalgan joyidan darslarni tinglab saytga joylashtirgan ma’lumotlarim asosida o‘zlarining bilimlarini oshirishlari mumkin bo‘ladi. file:///C:/Users/User/AppData/Local/Temp/Rar$EXa0.036/default/index.html mana saytning havolasi.

EHM  toifasi : Pentium IV va yuqori

Operatsion tizim: hamma operatsion tizimda ishlaydi

Bir nechta dasturlash tillaridan foydalanilgan

Dastur hajmi:11.9mb

Bunda siz o‘zingizga yoqqan kursni tanlab o‘qisangiz bo‘ladi.Kirish qismida home,courses,about,shop,blog,contact kabi bo‘limlari mavjud.Buning imkoniyatlarini sanaydigan bo‘lsak – xohlagan kurslaringizni tanlashingiz mumkin

- Barcha shaxslar uchun
- Elektron kitoblar bazasi mavjud
- Kitoblarni yuklab olishingiz va ular haqida ma’lumotg ega bo‘lish mumkin
- Biz bilan aloqaga chiqishingiz mumkin

Keyinchalik bu loyihani ustida ishlab pulli kurslar va yanada rivojlangan ta’lim muhitini yaratish niyatim bor.Bu hozircha ro‘yxatdan endi o‘tayotgan loyiha.Imkoniyatlari va vazifalari juda katta.

Masofaviy ta'limning kamchilikkari va muammolari haqida gaplashamiz.

❖ Masofaviy ta'limda ta'lim sifati boshqa ta'lim turlariga masalan an'anaviy ta'limga nisbatan past bo'ladi

Nega deganda avvalo masafaviy ta'lim muhitida talabalardan katta mustaqil ishlash protsessi talab qilinadi.Mustaqil izlanish,ko'proq bilim olish,bir joyda to'xtab qolmaslik.Bunday holda ko'p talabalar darsni o'zlashtira olmayotgani uchun tashlab ketishlari mumkim.Shu bilan birga online t'limda malakali,oliy ma'lumotli,tajribali pedagoglarni jalb qilish zarur.Albatta zamonaviy axborot texnologiya vositalarini yaxshi bilishlari ham zarur.Ta'lim qay usulda yoki qay turda olib borilishidan qat'iy nazar uning samarasi,sifati birinchi o'rinda turadi.

❖ Masofaviy ta'lim jarayonida talabalarni kompyuterni yaxshi bilmasligi.

Online ta'lim muhitida o'qiyotgan ekansiz siz kompyuterdan foydalangan,tushunadigan shaxs bo'lishingiz kerak.Chunki dars vatida har xil kutilmagan hodisalar bo'lishi mumkin.Shunda siz bu kamchiliklarni bartaraf etishingiz kerak bo'ladi.

❖ Dars jarayonida aniq bir vaqt belgilanmaslik holatlari

Masofadan o'qish,o'qitish,ta'lim olish jarayoni,repititor,qo'shimcha dars mashg'ulotlariga boradigan talabalarimiz uchun aniq bir qat'iy belgilangan dars vaqtlarining mavjud emasligi.Bu natijasida talabaning chalg'ib qolish holatlari,darsga mas'uliyatlari kamayishi holatlari bo'lishi mumkin.

❖ Amaliy mashg'ulotlar o'tqazilmaydi.

Masofaviy ta'lim olayotgan talaba va pedagog o'rtasida amaliy darslar,amaliy mashg'ulotlar ham online tarzda o'tqazilinadi.Yuzma-yuz,qo'l bilan uhlab,ko'z bilan ko'rib qilingan mashg'ulotlari talabaning xotirasida saqlanib qoladi.

❖ Har bir masofaviy ta'lim olayotgan talabada kuchli motivatsiya yetishmasligi.

Nega deganda masofaviy ta'lim olayotgan talabadan ko'proq mustaqil o'rganishi talab qilinadi.Hamma ham nazoratsiz holatlarda o'qishni tashlab qo'yishadi.Masofaviy ta'lim talabadan irodali,sabrli,mas'uliyatli bo'lishni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.https://lex.uz/docs/-6221502

2.file:///C:/Users/User/Downloads/GAIBOV_ZARIFJON.pdf

3.https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA'LIM_TIZIMI

4.https://lms.tuit.uz

5.https://library.samdu.uz/files/05a285ef80b93a18cf6b930bf3d237a1_Masofaviy%20ta%E2%80%99lim%20asoslari%20%20.pdf